

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINI MA'NAVY-DIDAKTIK MOHIYATI
(maktab darsliklari asosida)

Xotamova Mehrangiz Ma'rufjonovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
xotamovam2001@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek nasriy adabiyotining yetuk vakili Shukur Xolmirzayevning hikoyachilik san'atidagi ma'naviy-didaktik jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchining asarlarida xalqona tafakkur, odo-axloq, ijtimoiy ong va tarixiy xotira kabi tushunchalar badiiy obrazlar orqali ifoda etiladi. Hikoyalar orqali yosh avlodga ma'naviy saboq, milliy o'zlik, halollik va hayotiy haqiqatlar yetkazilishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada kontekstual va qiyosiy tahlil metodlari asosida Xolmirzayev hikoyalarining tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, hikoya, ma'naviyat, didaktika, axloqiy tarbiya, xalqona tafakkur, badiiy obrazlar.

Аннотация: В статье подробно рассматриваются духовно-дидактические аспекты рассказов Шукура Холмирзаева – одного из ведущих мастеров узбекской прозы. В произведениях писателя отражаются такие важные понятия, как народное мышление, нравственность, общественное сознание и историческая память. Через художественные образы читателю передаются уроки честности, самоидентичности и жизненной правды. Исследование основано на контекстуальном и сравнительном анализе, освещающем воспитательное значение его творчества.

Ключевые слова: Шукур Холмирзаев, рассказ, духовность, дидактика, нравственное воспитание, национальные ценности, художественные образы.

Abstract. This article thoroughly examines the spiritual and didactic aspects of Shukur Kholmiraev's short stories, a prominent figure in Uzbek prose literature. His works reflect traditional thinking, ethics, social consciousness, and historical memory through rich artistic imagery. The stories convey valuable lessons about honesty, self-awareness, and life truths, particularly for the education and moral development of the younger generation. The study uses contextual and comparative analysis to highlight the educational value of his literary contributions.

Keywords: Shukur Kholmiraev, story, spirituality, didactics, moral education, national values, artistic imagery.

KIRISH

Adabiyot har bir xalqning madaniy tafakkuri, ruhiy olami va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan muhim vositadir. Ayniqsa, hikoya janri orqali hayotiy lavhalar, odamlardagi ichki kechinmalari, ma'naviy saboqlar qisqa, lekin chuqur ma'no bilan yoritiladi. Shu ma'noda Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligining yorqin namoyandalaridan biri sifatida o'z o'rniga ega. Uning hikoyalarida insoniylik, mehnatga hurmat, halollik, oilaparvarlik, urf-odat va an'analar, jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy muammolar badiiy ifodasini topgan. Maqolada ushbu hikoyalar orqali yosh avlod tarbiyasiga, ma'naviy kamolotga xizmat qiluvchi jihatlar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zbek hikoyachiligida chuqur ma’naviy-estetik asosga ega bo‘lgan namunaviy asarlar bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarini tahlil qilishda bir nechta adabiy metodlardan foydalanish mumkin. Avvalo, struktural-tahliliy yondashuv orqali asarlarning syujet tuzilishi, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi aniqlanadi. Hikoyalardagi voqealar silsilasi sodda, ammo chuqur ma’no va hayotiy tajriba bilan boyitilgan bo‘lib, bu o‘quvchiga ta’sirchan tarzda yetkaziladi. Didaktik tahlilda esa muallifning asarlar orqali qanday axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalarni ilgari surayotganini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kontekstual yondashuv muallif asarlarini yozgan tarixiy va ijtimoiy sharoitni hisobga olish imkonini beradi. Bu orqali o‘sha davr kishilarining ruhiy holati, ijtimoiy muammolari va orzu-umidlari yanada aniqroq ochib beriladi. Lingvopoetik tahlil yordamida esa muallifning til boyligi, xalqona iboralardan mohirona foydalanishi, badiiy tasvir vositalari orqali fikrni ifodalash usullari o‘rganiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarda tasvirlangan obrazlarning ichki dunyosini chuqur anglash uchun psixologik tahlil usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy to‘lqinlanishlari, hayotiy qarorlarni qabul qilish jarayoni asarlarning ma’naviy ta’sir kuchini oshiradi. Ushbu tahlillar asosida “Omon ovchining o‘limi” hikoyasini o‘rganib chiqish mumkin. Bunda bir qancha muhim jihatlarga e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni:

Asarning asosiy qahramoni	Tabiat bilan hissiy ziddiyat	Qahramonning og‘ir damlari	Omonning oqibati	Xulosa
---------------------------	------------------------------	----------------------------	------------------	--------

1. Bolaligida otasidan hurmatli ovchi bo‘lib yetishgan – ota Rahmon polvon unga 13 yoshida uning “indamas” miltig‘ini berganidan boshlab, u hayvonlarni vahshiyona o‘ldirishni odat qilib oladi.

[1]

Omon o‘lja topa olmasa, xotini yoki hatto hayvonlar hech narsa ko‘ziga ko‘rinmasdi. Quydagi jumla orqali Omonning ovsiz kelgan kun holatiga guvoh bo‘lamiz. *“Mabodo ovdan qo‘li quruq qaytsa, bunday voqea juda kam bo‘lardi, u bamisoli otasi o‘lgandek aza tutar, qovog‘i ochilmas, shunda xotini ham ko‘ziga yomon ko‘rinib, bechora biron-bir yetishmovchilikdan zorlansa, u “jonga tegding-ku sen ham!” deya miltig‘ini qo‘lga olardi”*. [2] Ajabo, oddiygina ovdan quruq qaytishni otasi o‘lgandek aza tutish voqeasiga taqqoslash, aqlga sig‘maydigan holat, bizningcha. Lekin, guvohi bo‘lganimizday, Omon xuddi shu vaziyatga tushadi, hatto xotining zorlanishini eshitiboq, qo‘liga miltiq oladi. Qahramonimizga ortiqcha ta’rif berishning hojati yo‘q. Har kuni begunoh hayvon va qushlarni otaverish insonning medasini, balki, ko‘zlarini ham qonga to‘ldirib yuboradi. Tabiiyki, ko‘zi qonga to‘lgan odam, shu narsani yana va yana xohlayveradi. Oqibatda esa Omon ovchi ham jizzaki, sirkasi suv ko‘tarmaydigan, qattiq diyda shaxsga aylanib boradi.

2. U avval tabiatga muhabbat bilan qaragan bo‘lsa-da, oxir-oqibat ko‘zi hech narsani ko‘rmaydi, qalbi toshdek qotadi. Na odamlarga va na tabiatga muhabbati qoladi. Har narsadan mahrum inson kabi yashaydi. Masalan, yakka-yu yolg‘iz oziq manbaya bo‘lgan sigirini o‘ylamay ichiga panchaxa tiqishi, kakliklar voqeasi vahshiyona kiyik ovi tasvirlangan o‘rinlar uning naqadar ma’naviy qashshoqligini ko‘rsatib beradi. Tabiatga bo‘lgan bunday munosabati uchun yozuvchi uni “ikki oyoqli mahluq” deya ta’riflagan.

3. Uning yovuz xarakteri natijasida odamlar undan qo‘rqa boshlaydi. Ko‘pchilik qishloqni tark etadi. Xatto, xotini ham uni tashlab ketadi. Qishloqda odamlar ketib, tabiat bo‘shab qoladi. Bu

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

Omonni tushunarsiz holatga soladi – yakkalanadi. Nima qilayotgani o‘zi ham anglamaydi. Oxir-oqibat tabiat ham unga g‘azab bilan qaray boshlaydi.

4. Hikoyaning yakunida, o‘zining yovvoyi tabiatga bo‘lgan qotilligidan jazolangan kabi Omon ovdan qaytayotganda baxtsiz hodisaga uchraydi. U tabiatga qarshi qilgan barcha beg‘ubor jabrlarining oqibati sifatida aynan o‘sha yovvoyi muhit ichida halok bo‘ladi. Ya’ni, tabiat uni qattiq jazolaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bejiz yozuvchi Omonni ikki oyoqli maxluq deya ta’riflamagan. Sababi, o‘zi yarimjon, ikki oyog‘i ishlayotgan bir paytda ham ruhi ovni, hayvonlarning qonini bot-bot qumsardi, ularga ilhaq edi. Ong-u shuuriga ov qilish istagi, singib ketgan edi. Yuqorida ibtido va intiho haqida so‘z yuritilgan edi. Quydagi jumla orqali Omon ovchining intihosi qay tarzda yakun topishini ko‘rar ekanmiz, ortiqcha izoh va ta’riflarga o‘rin yo‘q. “Ertasi kuni odamlar ko‘ngil aynituvchi manzarani ko‘rishdi. Bir gala maslikxo‘r g‘ajinlar yulg‘unzor ichida, go‘yo qor supasida yotgan bir kimsani cho‘qib-cho‘qib yer edi”.

5. Hikoya tabiat bilan inson o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ko‘rsatadi: beg‘ubor jonzotlarni oldin o‘ldirgan odam, oxiri tabiatning o‘zi tomonidan o‘ldiriladi – buning orqali yozuvchi tabiatga hurmat muhimligini ulug‘lamoqda. Xalqimizda: “Odobni odobsizdan o‘rgan” degan maqol bor. Shukur Xolmirzayev ushbu hikoyasida salbiy tomonlama nosog‘lom oilaviy muhit, ma’naviy bo‘shlig‘i bor insonlar misolida o‘quvchini o‘z-o‘zidan to‘g‘ri yo‘lga olib chiqadi. Asarda shu joyida bunaqa qilmaslik kerak edi, deya ko‘rsatib o‘tirmaydi. Voqealarni xuddi rassomday chizib yaxshilik, mehr-muhabat, yomonlik, oqibat kabi tushunchalarni o‘z rangi bilan ko‘rsatadi.

NATIJALAR

Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi o‘zbek adabiyotidagi chuqur ma’naviy-didaktik mazmunga ega asarlardan biridir. Ushbu hikoya o‘quvchini inson va tabiat, halollik va insofsizlik, vijdon va xudbinlik kabi dolzarb axloqiy mavzular ustida o‘ylashga undaydi. Quйда hikoyaning ma’naviy-didaktik jihatlari tahlil qilinadi:

T/r	Tabiatga mehr va hurmat g‘oyasi	Omon tabiatni, hayvonlarni asrab-avaylamaydi. Ovchilikni halollik bilan qilmaydi. Tabiatga ehtiyotsiz munosabati tanqid qilinadi.
1.	Halollik va vijdon	Omon ovchi – vijdonsiz va yovuz inson. Hikoya vijdonli bo‘lishni targ‘ib etadi.
2.	Haqqoniylik uchun kurash	Omon o‘z e’tiqodi va hayot prinsiplariga sodiq qoladi, bosimlarga qarshi turadi. Qilayotgan ishlarini to‘g‘ri deb biladi. Lekin katta xatoga va gunohga botayotganini o‘zi bilmaydi. Bu bilan yozuvchi o‘quvchiga yomon fazilatlar orqali yaxshi xislatlarga targ‘ib qilishni ko‘zlaganligini bilish mumkin.
3.	Jamiyat va inson ziddiyati	Jamiyat Omondek insonlarni tanqid qiladi. Lekin uning qilayotganlarini taftish qilmaydi. Hamma o‘zi bilan ovvora. Hikoya bu kabi jamiyatdagi illatlarni fosh etadi.
4.	Axloqiy saboq va tarbiya	Hikoya o‘quvchiga halollik, vijdon, tabiatga mehr, sabr va insoniylik fazilatlarini o‘rgatadi. Yozuvchi aynan mana shu xislatlarni qilish kerak demaydi. Buni asarni o‘qiboq, o‘quvchi anglab yetadi.

Agar Shukur Xolmirzayev hikoyalarini ta'lim jarayonida o'rganish ko'zda tutilsa, u holda o'quvchilarning didaktik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodlardan foydalanish lozim. Jumladan, savol-javob metodi, bahs-munozara, rol o'ynash, hayotiy vaziyatlar asosida muhokama qilish kabi interaktiv metodlar o'quvchilarni asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini chuqurroq tushunishga yo'naltiradi. Hikoyalar orqali o'quvchilarda axloqiy qarashlar, estetik did va milliy ong shakllanadi.

MUHOKAMA

Xolmirzayev hikoyalaridagi obrazlar – oddiy insonlar. Ammo ular orqali yozuvchi o'quvchini o'ylantiradigan, hayotga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqishga undaydigan falsafiy g'oyalarni ilgari suradi. Adib hech qachon g'oyalarni ochiqcha, buyruqohona bermaydi – u buni badiiy mahorat bilan, obrazlar harakati, voqealar rivoji orqali nozik ifodalaydi. Adib asarlarida din, urf-odat, qadriyatlar qadrlanadi, ammo zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa uning hikoyalarini nafaqat badiiy, balki pedagogik, didaktik manba sifatida ham muhim qiladi.

XULOSA

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xalqning o'tmishi, buguni va ertasi tasvirlanadi. Uning obrazlari orqali o'quvchi o'zini, jamiyatni, hayotni anglaydi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida bu hikoyalar muhim manbadir. Hikoyalardagi didaktiklik bevosita emas, balki badiiy hayotiylik orqali berilishi ularni chuqur ma'naviylik bilan boyitadi. Shukur Xolmirzayev “Adabiyotga Surxon koloritini hamda o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini, dialektini olib kirdi”. [3] Demak, Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek adabiyotining ma'naviy-tarbiyaviy maktabidir. Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega. Sh.Xolmirzayev J.London, E.Xeminguey, S.Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi badiiy mahorati uning tabiat va inson munosabatlari aks etgan hikoyalari mahorat bilan yoritilganki, avvalgilarini takrorlamaydi, hech bir yozuvchi ijodiga o'xshamaydi. Yozuvchi ijodida tasvir prinsiplarining paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, avvalo, adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot 8: darslik / S.Olimov, S.Ahmedov va boshq, – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 352 b.
2. Tavaldiyeva Gulbahor. — Sh. Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari .FF nomzodlik dissertatsiyasi, 2010-yil
3. Xolmirzayev.Sh. Olis yulduzlar ostida,– T.: Cho'lpon, 1971-yil, 15-bet
4. Xolmirzayev.Sh. Komil inson orzusi yoxud adabiyotning ibrat yaratish masuliyati, – T.: O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2001-yil, 169 bet.